

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARI JARAYONIDA MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USLUBLARI

Ahmadjonova Malohat Abror qizi

A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti stajor tadqiqotchisi.

*Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish va uning samaradorligi, kamchilik va yutuqlari qisqacha yoritiladi. Bundan tashqari multimedia atamasi, uning kelib chiqishi, mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan.*

*Kalit so'zlar: multimedia, vizualizatsiya, realizatsiya, kontaminatsiya, deformatsiya.*

## METHODS OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF MUSIC CULTURE LESSONS

Ahmadjonova Malohat Abror qizi

an intern researcher at the National Research Institute named after A. Avloni.

*Abstract. In this article, the organization of music culture classes with the help of information technologies and its effectiveness, shortcomings and achievements will be briefly covered. In addition, information is given about the term multimedia, its origin and content.*

*Key words: multimedia, visualization, realization, contamination, deformation.*

## МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ УРОКОВ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аҳмаджонова Малоҳат Аброр қизи

стажер-исследователь Национального исследовательского института имени А. Авлони.

*Аннотация. В данной статье будет кратко освещена организация занятий музыкальной культуры с помощью информационных технологий и ее эффективность, недостатки и достижения. Кроме того, дается информация о термине мультимедиа, его происхождении и содержании.*


*Ключевые слова: мультимедиа, визуализация, реализация, загрязнение, деформация.*

Ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko'rsatkichlarini oshirish barobarida o'qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o'z faoliyatida, dars samaradorligini ta'minlashga tadbiriq eta oladigan darajada tayyorlash, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi o'quv o'rinlarini yaratish va maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha chora tadbirlar bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

O'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda ta'limga multimedia vositalaridan mohirona foydalanish muhim o'rin tutadi. Zero, an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatish bilan mezonlariga muvofiq bilimlarni o'quvchilarning o'zlari o'zlarining bilim o'zlari keltirib chiqarishiga yo'naltirilishi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'rta ta'lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish, ularni ta'lim jarayonida qo'llanish xizmat qiladi[1].

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda ta'limga multimedia vositalaridan mohirona foydalanish muhim o'rin tutadi. Zero, an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatish bilan mezonlariga muvofiq bilimlarni o'quvchilarning o'zlari o'zlarining bilim o'zlari keltirib chiqarishiga yo'naltirilishi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'rta ta'lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish, ularni ta'lim jarayonida qo'llanish xizmat qiladi[1].

tomonidan



### 1-rasm

1966-yilda u o'zining yangi shou-spektaklining namoyishi vaqtida "multimedia" atamasini qo'llagan. Keyinchalik bu atama ovoz va videoga ega bo'lgan har qanday ko'ngilochar mahsulotni anglata boshladi. Faqat 1990-yillarning oxirida bu so'zga aniq ta'rif berila boshlandi. 1988-yilga kelib esa, multimedia tushunchasi yangi texnologiyalarni amaliyotda tadbiq etish va ulardan foydalanish muammolari bilan shug'ullanadigan yirik Yevropa Komissiyasi tomonidan shakllantirilgan.

Multimedia vositasining bir qancha ta'riflari mavjud, ularning ayrimlarini keltiramiz. Jumladan multimedia[3]– (inglizcha-yunoncha multimedia-o'rta vositalar) bu-axborot informatsiya uzatishning xilma-xil vositalarini qamrab oluvchi texnologiya bo'lib, unda muayyan dasturlar va vositalar mavjud bo'ladi. Multimediaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizimga, videomagnitofon va videokameralarni ko'rish imkoniyatiga, tasvirni ushlab va axborotlarni rangli grafika, ovozlarning chiqishi va sintezlashgan musiqalar kabi turli ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyatidir[4]. "Multimedia" atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "multi"-ko'p, "media"-muhit demakdir. Ya'ni axborotni inson ongi qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash.

Multimedia bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalar yordamida interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, matn, tovush, grafika, foto va videoni birlashtiradi. Bunda ma'lumot turli axborot tashuvchilar-magnit va optik disklar, audio va video tasmalarda mavjud bo'lishi mumkin. (2-rasm)



Multimedia–kompyutertizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Multimedia texnologiyasi-informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) ko'rinishdagi ma'lumotlar asosida o'quv materiallarini o'rganuvchilarga yetkazib berishni ko'zda tutgan texnologiyadir.

Texnologiya tushunchasining ta'rifiga nazar tashlasak, yunon tilidan tarjima qilinganda "techne"- (san'at, mahorat, hunar, mohirlik) biror obyektning holatini, xususiyatlarini, shaklini, qayta ishlash, ishlab chiqarish, o'zgartirish usullarining to'plami ma'nolarida keladi. Izohli lug'atda bu atama har qanday biznesda, hunarmandchilikda ishlatiladigan texnikalar to'plami sifatida belgilanadi.

Shunday qilib, multimedia texnologiyasi tushunchasini kompyuter tizimida matn, ovoz, video, grafika, animatsiya va interfaollikni birlashtirishga imkon beradigan zamonaviy kompyuter axborot texnologiyalari sifatida tushunish kerak.


Multimedia vositalariga –audiokolonka, mikrofon, videoproyektor, Veb kamera, TV tuner, CD disklar, interaktiv doska kabilar kiradi.(3-rasm)

## Veb kamera, TV tuner, CD disklar, interaktiv doska kabilar kiradi.(3-rasm)



Multimedia mahsulotiga- elektron kitoblar, darsliklar, slaydlar, karaokelar, turli xil animatsion ishlanmalarni kiritish mumkin.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi jarayoniga tadbiiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Kompyuterli texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarining hajmini ko'paytirishda va ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita sifatida amalga oshirilmoqda. Unda kompyuter monitoriga qarab ekranda ko'rsatiladigan materiallardan foydalanib bilim olish, kompyuter savodxonligini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Multimediali kompyuterli texnologiyada ko'rgazmali vositadan tashqari ta'lim beradigan manba sifatida qaraladi. Chunki o'rganiladigan materiallar oldindan kompyuter xotirasiga joylashtirilgan bo'ladi. O'qituvchi qaysi mavzuni o'quvchilarga o'rgatmoqchibo'lsa, kerakli ma'lumotlarni monitor ekraniga chaqirib oladi va namoyish etiladigan materiallar bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Shu asosda ular mavzu yuzasidan namoyish etilgan materiallarni o'rganib boradilar. Bunda o'quvchilar kompyuter bilan yetarli darajada ko'nikma hosil qiladi. Shu bilan birga maktab yoshidagi o'quvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida tafakkuri rivojlanadi, bilim olishga qiziqishi ortadi va dunyoqarashi kengayib boradi. Multimedia texnologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini quyidagi shaklda ifodalash mumkin.(4-rasm)



4-rasm

Multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterlashtirilgan ta'lim inson ya'ni o'qituvchining o'rnini bosa olmaydi. Mavjud ma'lumotlar va ta'lim tarbiyada albatta o'qituvchining roli muhim va birinchi o'rinda turadi. Bunda mustaqil va ijodiy fikrlash, ma'lumotlarni to'ldirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.

Multimediadagi matn qisqa, aniq va tushunarli bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi uni nafaqat o'qishi, balki tezda yod olishi ham mumkin bo'ladi. Matnlarni turli shrift va ranglarda yozilishi o'quvchining e'tiborini yanada o'ziga tortishini ta'minlaydi.

Ovoz - bunda ma'lumotlar turli tovushlardan iborat bo'lib, o'quvchida hissiy bilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ovozning past-balandligi, intonatsiyali, hayajonliligi ahamiyatga ega hisoblanadi. Jonli

harakat-monitoringda turli narsa, predmet, odam yoki hayvonlar tasvirining xatti-harakatlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Grafik tasvirlar muhokama qilinayotgan muayyan mavzudagi predmetni tasavvur qilish uchun hosil qilinadi. Bu xotiraning mustahkamlanishiga, mavzuni ma'lum bir predmet tasviriga bog'liq ravishda eslab qolishga yordam beradi. Yuqorida keltirilganlar asosida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro erkin, jonli muloqot orqali xulosalar qilinadi va dars yakunlanadi. Multimedia texnologiyalaridan foydalanishning mohiyati sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda musiqiy adabiyotlar va musiqani o'rganishda audiodarsliklardan foydalanish vaqtini tejash va o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga qaratiladi;

- yangi axborot texnologiyalari vositalari o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish, ularning ijodiy, kommunikativ qobiliyatlari o'stirish va kompyuter savodxonligi, axborot olish madaniyatini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

- o'quv jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish turli davrlar, mamlakatlar o'quv uslublarini, musiqa madaniyati ta'limi jarayonini bir vaqtda kuzatib axborot vatajriba almashinuviga sharoit yaratishga imkon beradi.

Multimedia tizimlarining paydo bo'lishi inson faoliyatining ko'plab sohalarda tub o'zgarish yasadi. Multimedia texnologiyasi ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan sohalardan biriga aylandi. Chunki multimediaga asoslangan axborotlashtirish vositalari ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Eksperimental ravishda aniqlanishicha, materialni og'zaki taqdim etishda o'quvchi 1 daqiqada 1000 tagacha an'anaviy ma'lumotlarni qabul qiladi va qayta ishlay oladi, multimedia texnologiyalari bilan esa bu ko'rsatkich 100 mingtagacha oshadi.

Multimedia vositalari va texnologiyalari audiovizual ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari orqali maktabni intensivlashtirish va maktab o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish imkoniyatini beradi[6].

Masalan:

- Vizualizatsiya- ma'lumotni ko'rib tasavvurda jonlantirish;
- Realizatsiya- olingan ma'lumotlarni amaliyotga tadbiq etish;
- Kontaminatsiya- (qo'shib ketish, aralashish) ma'lumotlarni jamlab, yangi tushunchalar hosil qilish;

- Deformatsiya-ma'lum bir chiziqli parametrlarni kattalashtirish yoki kichraytirish, tasvirni cho'zish yoki siqish;

- Diskretlik(uzlukli)-audiovizual ma'lumotlarning uzlukli taqdimoti;

- Tasvirni tonlash;

- Vizual ma'lumotlarning tanlangan qismini keyinchalik ko'chirish yoki "lupa ostida ko'rib chiqish" uchun yozib olish;

- Bitta ekranda audiovizual ma'lumotlarning ko'p oynali ko'rinishi, ekranning istalgan qismini faollashtirish imkoni mavjud. (Masalan bitta oynada –video, boshqasida matn );

- Demonstratsiya- real vaqtdagi voqealarni namoyish qilish (video).

- Multimediani ta'lim jarayonida qo'llashning o'ziga yarasha muammolari ham mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- ta'lim uchun kerak bo'lgan o'quv materiallar, qo'llanmalarni kompyuter dasturlari ko'rinishida ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarini ta'lim jarayonida samarali qo'llay olish.

Bir so'z bilan aytganda, aytganda, multimedia ta'limning emotsional-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar. T., TDPU, 2006.

2. I.Akbarov Musiqa lug'ati. T.O'qituvchi 1997 y.

3. J.Yu.Hasanboev Pedagogikanazariyasi. Ma'ruza matni. T. 2002 y.

4. Mansurva G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. O'quv metodik qullanma-Toshkent. 2008;

5. Ismailov Tohir. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA RUS KOMPOZITORLARI

IJODI ORQALI O'QUVCHILARNING ESTETIK DIDINI RIVOJLANTIRISH" SCIENCE AND EDUCATION IN VOLUME #2 ISSUE #4, APRIL 2021;

6. SHaripova G.. Musiqa va uni o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma). Toshkent - 2006.
7. Ismailov Tohir. "CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART" «Экономикаисоциум» №3(82) 2021 www.iupr.ru
8. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent – 1997.
9. Ismailov Tohir. "THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE" «Экономикаисоциум» №1(80) 2021 www.iupr.ru.
10. Ismailov Tohir. "Musical currents and the formation of Russian classical music". "Вестник магистратуры" 2021. №5 (116) ISSN 2223-4047;